



Nargiza XUSHNAZAROVA,
Nizomiy nomidagi O'zMPU Ijtimoiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi
E-mail: xushnazarovanargiza86@gmail.com

O'zMPU professori, falsafa fanlari nomzodi M.Tillavoldiyeva taqrizi asosida

OLIIY TA'LIM TRANSFORMATSIIYASIDA METODOLOGIYA MASALASINING FALSAFIY TAHLILI

Annotation

Mazkur maqolada oliy ta'lim transformatsiyasi va undagi metodologiya masalasining bugungi kundagi ilmiy tahlil turlari atroflicha yoritilgan. Oliy ta'limdagi muammolarni bartaraf etishda qanday usullardan foydalanish mumkinligi, turli yondashuvlar hamda usullari, vositalari tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim, transformatsiya, metodologiya, axborot vositalari, sinergetik yondashuv, usul, vosita, struktura, ta'lim-tarbiya.

ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ВОПРОСА МЕТОДОЛОГИИ В ТРАНСФОРМАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

В данной статье подробно освещены современные виды научного анализа трансформации высшего образования и вопросов ее методологии. Проанализированы различные подходы, методы и инструменты, которые могут быть использованы для устранения проблем в высшем образовании.

Ключевые слова: Высшее образование, трансформация, методология, средства массовой информации, синергетический подход, метод, инструмент, структура, образование.

PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE METHODOLOGY OF HIGHER EDUCATION TRANSFORMATION

Annotation

This article provides a comprehensive overview of current scientific analyses of the issue of higher education transformation and its methodology. It examines the methods that can be used to address problems in higher education, as well as various approaches, methods, and tools.

Key words: Higher education, transformation, methodology, information media, synergistic approach, method, tool, structure, education and training, personnel training.

Kirish. Zamon o'zgarib borar ekan o'z navbatida har bir sohada o'zgarishlarni talab etadi albatta. Bugungi kunda oliy ta'limni rivojlantirish jarayoni jahondagi rivojlangan mamlakatlar qatorida bizning yurtimizda ham turli tartibda ravnaq topib bormoqda. Muhtaram yurtboshimiz "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni imzoladi[1]. Bu farmoni imzolaganining o'zidayoq katta ma'no mazmun kasb etadi. YA'ni oliy ta'lim tizimiga katta e'tibor qaratish orqali jahondagi rivojlangan mamlakatlarga o'z salohiyatimiz bilan tenglashish imkoniyati borligini anglatadi.

"Oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm – fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida e'tibor qaratiladi"[2]. Muhtaram yurtboshimizning ushbu so'zlaridan kelib chiqqan holda dunyoga yuz tutishimizda albatta oliy ta'limning eng yuksak cho'qqiga olib chiqish zarur.

Shuningdek, mamlakatda oliy ta'limning barcha bo'g'inlari izchil rivojlantirilmoqda. Yangi o'quv binolari

barpo etilib, zamonaviy axborot vositalari, yangi uskunalar bilan ta'minlanib, yoshlarning bilim olishiga keng imkoniyatlar yaratilayotgani oliy ta'limga bo'lgan e'tibor maxsuli sanaladi. Bu boradagi yurtboshimizning tashabbuslari katta ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturlari yangilanib, eng ilg'or tajribalar joriy etilmoqda[3]. Bu qay darajada bugungi kunda oliy ta'limga e'tibor qaratilayotganligini ko'rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda oliy ta'lim transformatsiyasi faqat texnologik yangilanishlar bilan cheklanib qolmay, tizimda "insoniyatning o'lchami"ni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Taniqli fransus olimi, professor K.Levi-Strossning struktural-antropologik konsepsiyasi jamiyatni struktural metod asosida tadqiq etish jarayonini boshlab bergan[4]. Struktural-antropologik metod ta'lim muassasasini ma'muriy bino ekanlini, uni o'ziga xos ijtimoiy struktura va insoniy munosabatlar maydoni sifatida tahlil qiladi.

Oliy ta'limning struktural elementlari tadqiqot doirasida quyidagi darajalarda tahlillanadi:

Daraja	Tadqiqot ob'yekti
Makro-struktura	Davlat ta'lim standartlari, qonunchilik va global reytinglar
Mezo-struktura	Universitetning ichki muhiti, korporativ madaniyat va boshqaruv etikasi
Mikro-struktura	Auditoryadagi muloqotlar: "ustoz - shogird" munosabatlarining antropologik xususiyatlari

Amerikalik olim Jack Mezirowning (1923-2014) "Transformative Dimensions of Youth Learning" ya'ni Yoshlar ta'limining transformatsion o'lovlarini asarida oliy ta'limda passiv talabani faol fikrlovchi talabaga aylantirish

usullari va ularni dunyoqarashini shakllantirish orqali tanqidiy fikrlash qobiliyatini ortishi to'g'risida baxs yuritadi. Oliy ta'limda "bilim berish" dan – "ongni o'zgartirish"ga yonaltirish kerakligi haqida o'z asarida qayd o'tgan[5].

Muallif o'z asarida oliy ta'limda yoshlar bilan ishlash metodikasi to'g'risida atroflicha ma'lumotlar beribgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Dunyodagi barcha mamlakatlarda oliy ta'lim tizimi o'zining rang barangligi, saviya jihatidan darajasi va nufuzining qandayligini bilish uchun har hil metodlar orqali tadqiq qilish ya'ni o'rganish usullari mavjud. Bugungi rivojlanib borayotgan axborot asrida ilm-fanning taraqqiyoti va natijalari ma'lum bir falsafiy ko'rinishlarini tadqiq qilish va kelajakda mo'ljallanayotgan natijalarga erishish yo'llarini topish imkoniyati paydo bo'lmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimini turli metodlar orqali o'rganishni keltirib chiqaradi.

Oliy ta'lim tizimini sinergetik yondashuv orqali ochib berishda bu usul ancha yaxshi samara beradi. "...sinergetika ilmiy tushuncha sifatida faqat ilmiy muammolar yechimini izlab topish emas, balki bu olamni tamoyillar asosida tushunish, taraqqiyot paradokslarini noan'anaviy yondashuvlar asosida tahlil qilish, yangi ilmiy g'oya va gepotizalar orqali ilmiy yo'nalishlarni ishlab chiqishga ham muhim shart-sharoitlar yaratadi. Shuningdek, sinergetika falsafiy nuqtai-nazardan ham yangi model hisoblanib, unga inson tabiati, jamiyat va insonning o'z-o'zi haqida fikrlashi shu bilan birga mavjudligini his qilishga doim yangi ilmiy fikr-mulohazalar muayyan darajada sistemaga solingan"[6]. Bu usulni bugungi kun oliy ta'lim tizimi jarayonida qo'llash orqali tadqiqotchilar tomonidan yangi g'oyalar ishlab chiqilib oliy ta'limni rivojlanishiga o'z munosabatini qaratishini ko'rish mumkin.

Ta'limga bo'lgan qiziqish kundan kunga yuqorilab bormoqda. Bu esa qabul jarayonlarini tahlil qilishni keltirib chiqaradi. Aytaylik 2020-2021 o'quv yilida kirish jarayoniga jami hujjat topshirganlar 1 484 085 nafar abiturent (bu 2019 – yilga nisbatan qariyb 417 ming nafar ko'p) hujjat topshirilgan. Bu esa oliy ta'limotli bo'lishga qiziqishni ortgani ko'rinadi. Shu yildan boshlab 5 ta yo'nalishni tanlash ya'ni abiturentlar bir vaqtning o'zida 5 tagacha ta'lim yo'nalishini tanlash imkoniyati berilishi raqobatning ortishiga sabab bo'ldi.

Sohani yanada rivojlantirish yuzasidan Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lim muassasasi xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish[7] bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Qayd etib o'tish lozimki, strukturalizm metodiga oid qarama-qarshi fikrlar ko'p bo'lib, ularning ma'lum bir qismi ushbu metodni inkor qiladi va metodning eng asosiy kamchiligi sifatida har qanday tizimdan yashirin strukturalarni izlash ko'rsatib o'tilgan[8]. Bunda ilmiy – tadqiqot va tahliliy yondashuv asosida hodisa va jarayonlarga o'zaro bog'liqlik munosabatlarini chuquroq kirib borishni talab etadi. Ushbu metodning afzallik tomonlari shundaki; murakkab obyektlarni tizimli tushunishga yordam beradi, ilmiy modellashtirish imkoniyatini yaratadi, taqqoslash va umumlashtirish osonlashadi.

Kontent tahlil (Content Analysis) oliy ta'lim transformatsiyasining yangi bosqichini o'rganishda yangi ahamiyatga ega metoddir. Kontent tahlil qilish qat'iy verbal ma'lumotlarni nisbatan obyektiv bo'lgan noverbal, matnli shakldan matsiz shaklga o'tkazish orqali ijtimoiy voqelikni tahlil etishga qaratilgan metoddir[9]. Bu metodning asosiy maqsadi – matn yoki axborot oqimida yashirin va ochiq ma'nolarini aniqlash, muayyan g'oya, tushuncha, mavzu yoki tendensiyalarning takrorlanish chastotasini va mazmunini yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Bu metodning afzalliklariga to'xtaladigan bo'lsak; katta hajmdagi matnni tizimli tahlil

qilishi, tadqiqot natijalarini ishonchli bo'lishi, yashirin tendensiyalarni aniqlash osonlashadi.

Tahlil va natijalar. Darhaqiqat, oliy ta'lim tizimini o'rganib tahlil qilish va sohadagi kamchiliklarni bartaraf etish oldimizga qo'yilgan dolzarb masalalardan biridir. Buning uchun biz bugungi kunda qiziqish orqali borayotgan sohani anglashimiz va undagi muammolarni izlab topishimiz zarur. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki eng qiziqish uyg'otib borayotgan soha IT hisoblanmoqda.

O'zbekistondagi jadallik bilan olib borilayotgan qator islohotlar oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar – oliy dargohlarni tarmog'ini yanada kengaytirish, chet el andozalarini yurtimizga olib kelish va sohaga doir qator qarorlarni ijrosini ta'minlash zarur. Ana shunday shiddatli vaziyatda oliy ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish yetishib chiqayotgan kadrlarni salohiyatini yanada oshishiga sabab bo'ladi.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida oliy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ta'lim-tarbiya – bu bizning kelajagimiz, hayot-mamot masalasi. Shu bois, bu sohadagi islohotlarni kechiktirishga haqqimiz yo'q[10]. Ta'lim sifati, kadrlar tayyorlash samaradorligi va ilmiy salohiyatni oshirish masalalari murakkab va ko'p omilli jarayon bo'lib, ularni an'anaviy yondashuvlar bilan to'liq hal etish qiyin. Shu sababli oliy ta'lim tizimini rivojlantirishda tizimli yondashuv metodologiyasidan foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim tizimini struktural metod asosida tahlil qiladigan bo'lsak, P.Teykseyra va A.Amaral oliy ta'lim tizimidagi diversifikatsiya haqida gapirganda, uning uch jihatiga e'tibor qaratish zarur deb ta'kidlaydi. Ular quyidagilar:

tizimlar ichidagi turfa xillik (bir tizim ichidagi oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi xilma-xillik);

strukturaliy xilma-xillik (ma'lum bir tarixiy, huquqiy va iqtisodiy asosga ega bo'lgan OTMLar o'rtasidagi xilma-xillik);

dasturiy xilma-xillik (ta'lim xizmatlari va o'quv dasturlari o'rtasidagi xilma - xillik)[11].

Qayt etish joizki, oliy ta'lim tizimiga metodologik yondashuvda shu berilgan komponentlar asosida tahlil qilinsa ya'ni talabalarning mutaxassisliklarga qiziqishi qay darajadali eng muhim masala hisoblanadi. Jamiyatni funksional tahlil qilish, har bir institutning o'zigagina xos bo'lgan funksiyasini aniqlab olish orqali uning mohiyatini ochib berishga qaratilgan[12]. Buning uchun oliy ta'limga hujjat topshirayotgan talabalar bilan onlayn so'rovnoma tashkil qilinib, qaysi oliy ta'lim yo'nalishlari ommabopligini aniqlash talab etiladi. Ko'rilgan natija evaziga o'sha sohaga e'tibor qaratilib rivojlantirilsa oldindagi maqsadga erishiladi.

Mana shunday sharoitda ijtimoiy falsafada mavjud muammolarni ilmiy tahlil qilishda, ijtimoiy so'rov metodini o'tkazishda ham ma'lum bir qiyinchiliklar vujudga keladi. Lekin raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib respondentlardan ma'lum bir ijtimoiy voqelik bo'yicha ma'lumotlarni olish va qayta ishlash mumkin. "Google forms" platformasi onlayn so'rovnoma o'tkazish uchun universal dastur hisoblanadi[13]. Olib borilgan natijalar shuni ko'rsatadiki bugungi kun yoshlarining dunyoqarashi ortib borayotganligi, qiziqishlarning tobora kengayotganligi sababli ta'limda faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarni qayta o'qitish va malakasini oshirish talabi kuchaymoqda. Yangi fan tarmoqlari talablariga to'la qonli ravishda javob bera olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa o'rinda shuni takidlash kerakki, oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalasi hisoblanadi. YA'ni mamlakat rivojlanishida asosiy bo'g'in - yoshlar hisoblanadi, ularning dunyoqarashini kengaytirishda bu sohaning o'rni muhim o'rin tutadi. Oliy ta'limni metodologik usullar orqali tadqiq qilish,

sohadagi asosiy muammolarni o'rgangan holda bartaraf etish zarur. Shuning uchun chet el oliy o'quv yurtlari andozalarini yurtimiz oliy ta'lim tizimida qo'llash orqali rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. <https://kun.uz/71003202> O'zbekiston., (Murojaat etilgan sana: 09.10.2019)
2. Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон стратегияси. Тошкент, – 2021, Ўзбекистон., Б – 230.
3. <https://president.uz/oz/lists/view/8468> (Murojaat etilgan sana: 08.09.2025)
4. Леви-Стросс К. Структурная антропология. – Москва; Эксмо-пресс, 2001. С. 512
5. Jack Mezirow – Transformative Dimensions of Adult Learning. 1991, aprel. В - 247-272.
6. Бозаров Д. Синергетика парадигмасининг фалсафий-методологик таҳлили; Фалс.фан.ном.дисс. – Тошкент, 2010. – Б.30.
7. <https://kun.uz/71003202> O'zbekiston., (Murojaat etilgan sana: 09.10.2019)
8. Wiley Online Library. Strukturalis: //URL: <https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1002/9781118430873.est0376> (Murojaat etilgan sana: 13.07.2020.)
9. Ашотовна П.И. Контент – анализ как метод исследования; достоинства и ограничения // Научная периодика; проблемы и решения. 2002. №3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/kontent-analiz-kak-metod-issledovaniya-dostoinstva-i-organicheniya>(дата обращения; 13.07.2020)
10. <https://yuz.uz/uz/news/talim-tarbiya--bu-bizning-kelajagimiz-hayot-mamot-masalasi--shavkat-mirziyoev> (Murojaat etilgan sana: 28.01.2022)
11. Private Higher Education and Diversity: An Exploratory Survey 16 December 2002. <https://doi.org/10.1111/1468-2273.00194>
12. Батыгин Г. Структурный функционализм Толкотта Парсонса// Вестник Российского университета дружбы народов. Серия; Социология, 2003. -№4—5. – С. Б-34
13. Формы //URL: <https://docs.google.com/forms> (Murojaat etilgan sana; 12.04.2021)